


Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi		
№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Buxoroga tashrif (Visit to Bukhara) elektron onlayn platforma va mobil ilovasini ishlab chiqish  	Tadqiqotning shakli: Innovatsion. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - “Visit to Bukhara” elektron onlayn platforma va uning mobil ilovasi ishlab chiqiladi; - Buxoro viloyatining tuman va shaharlar kesimida barcha turistik destinatsiyalar raqamli ma'lumotlari tayyorlanadi; - turistik destinatsiyalar holati to'g'risida aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar to'planadi; - elektron onlayn platforma va mobil ilovada Buxoro viloyati turistik destinatsiyalar ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda bir nechta xorijiy tillarda tarjima qilinadi; - Buxoro viloyatining tuman va shaharlari kesimida barcha turistik destinatsiyalar raqamlashtiriladi hamda QR kodlanadi; - elektron onlayn platforma va mobil ilovada Buxoro viloyatining barcha turistik destinatsiyalarning 3D modeli shakllantiriladi; - Buxoro viloyati turistik obyektlari hududida foydalanish uchun elektron ovozli ilovalar va elektron matnlar yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Turizm qo'mitasi hamda Buxoro viloyati hokimligida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Turizm qo'mitasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.